



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

№2

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2025



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

э.л.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

<b>Fotimaxon Ibragimovna Ergasheva</b> Jamoatchilik bilan aloqalarni boshqarish funktsiyalari va tamoyillari	156
<b>Xilola Nematovna Ochilova</b> Oliy ta’lim tizimida pedagog-xodimlarni boshqarishning ahamiyati	162
<b>Niyozxo’ja Bahroil o’g’li Yahyoxonov</b> Samsung kompaniyasining marketing faoliyati tahlili	168
<b>Xilola Nematovna Ochilova, Asilbek Po’lat o’g’li Ne’matov</b> Oliy ta’lim muassasalarida pedagog-xodimlarni boshqarishning samaradorligini baholash yo’llari	173
<b>ИНВЕСТИЦИЯ</b>	
<b>Musurmon Axmadovich A’zamov, Ra’no Sherali qizi Xoliqulova, Muzaffar Janobiddinovich Suyunov</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiyalarning o’rni va ahamiyati	177
<b>Ozodbek Shuhrat o’g’li Jumaqulov</b> Investitsion jozibadorlikni oshirishni iqtisodiy rivojlanishga ta’siri	181
<b>МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ</b>	
<b>Nuriddin Elamonovich Ernazarov</b> Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig’ini soliq bazasini hisoblash amaliyotini takomillashtirish	188
<b>Bobir Xo’jaqul o’g’li Qilichov</b> Sug’urta bozorlari va global turizmning o’zaro bog’liqligi	191
<b>Зариф Юсупович Аминов</b> Хизмат кўрсатувчи корхоналар иқтисодий хавфсизлиги ҳолатини баҳолашда қўлланиладиган кўрсаткичлар тизими ва уларни аниқлаш йўллари	194
<b>То’лиқин Ismatulla o’g’li Yahyoyev</b> Pul oqimlari harakatini moliyaviy hisob xalqaro standartlariga ko’ra aks ettirilishi	198
<b>БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ</b>	
<b>Бекзод Сайдазим ўғли Бурхонов</b> Инсон ресурслари самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар ва унга таъсир этувчи омиллар	202
<b>Шахриёр Шодиёрович Тураев</b> Адвокатлик тузилмалари адвокатга иш ҳақи тўловлари ва унинг бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш	206
<b>Baxtiyor Xushvaktovich Azizkulov, Musurmon Axmadovich A’zamov, Dilafruz Asqarjon qizi Uroqova</b> Klasterlar faoliyatini ekonometrik prognozlash	210
<b>ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА</b>	
<b>Feruz Kubaymurodovna Ismoilova</b> Ta’lim xizmatlari bozorida malakali kadrlarga bo’lgan ehtiyojni shakllantirish asoslari	215
<b>Akram Abduraxmonovich Azizqulov, Is’haq Abduraxmonov</b> Xizmat ko’rsatish odobi Yusuf Xos Xojib talqinida	219
<b>Khasan Khankeldiyev, Shakhrux Bobojanov</b> A study on preference for either online education courses or traditional ones at turin polytechnic university in Tashkent	223
<b>ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР</b>	
<b>Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев</b> Ҳар биримиз 8,2 миллиард кишининг биримиз	227

7. Подшиваленко и др. Инвестиции. Учеб. пос.3-е изд. – М.: КНОРУС, 2006. С. 7.
8. Шарп У., Александр Г., Бейли Дж. Инвестиции. Пер. сангл.–М.: Инфра-М, 1997. С. 16, 979 с.
9. Нешитой А.С. Инвестиции. Учебник. 4-е изд. – М.: Дашков и К0, 2006. С. 14.
10. А.У. Burhanov, Sh.X. Muminov, X.X. Xudoyqulov „Investitsiyalar va innovatsiyalar” darslik

<p><b>М.Азамов, Р.Холикулова, М.Суюнов</b>  <b>Роль и значение инвестиций в условиях цифровой экономики</b></p>	<p><b>M. Azamov, R.Kholikulova, M.Suyunov</b>  <b>The role and importance of investments in a market economy</b></p>
<p><b>Аннотация.</b> В данной статье рассматриваются роль и значение инвестиций в рыночной экономике, а также их теоритические основы. Освещается значение инвестиций в социально-экономическом развитии регионов, особенности инвестиций в основной капитал, на душу населения, комплексные меры стимулирования производства.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> материальные вложения, финансовые вложения, интеллектуальные вложения, отечественные и зарубежные инвестиции, портфельные инвестиции.</p>	<p><b>Abstract.</b> This article examines the role and importance of investments in a market economy, as well as their theoretical foundations. It highlights the importance of investments in the socio-economic development of regions, the specifics of investments in fixed capital, per capita, and comprehensive measures to stimulate production.</p> <p><b>Keywords:</b> material investments, financial investments, intellectual investments, domestic and foreign investments, portfolio invesments.</p>

**UDK: 339.168**

**Ozodbek Shuhrat o‘g‘li Jumaqulov** – SamISI, “Investitsiyalar va innovatsiyalar” kafedراسи докторанти

### INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA’SIRI

**Аннотасија.** Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida investitsion jozibadorlikni oshirishning mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta’siri bilan bir qatorda, respublikada yaratilayotgan investitsion muhitning o‘ziga xos xususiyatlariga alohida e’tibor qaratilgan. Sir emaski, globallashuv jarayonlari shiddat bilan kechayotgan bugungi kunda jahon bozorida o‘z o‘rnini egallash va kuchli raqobatga bardosh bera oladigan yangi mahsulot va xizmat turlarini yaratish hamda mavjud ishlab chiqarish va xizmatlarni innovatsiyalar asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ushbu maqolada investitsiyalarning iqtisodiyotimizdagi o‘rni va o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilib, tegishli taklif va xulosalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** investitsiya, iqtisodiyot, iqtisodiy islohotlar, investitsiya muhiti, baho, hajm, miqdor ko‘rsatkichlari, sifat ko‘rsatkichlari, “Maqbul investitsiya muhiti”, investitsiya siyosati.

**Kirish.** Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotining taraqqiyoti bevosita investitsiyalar oqimining qay darajada rivojlanayotganligiga bog‘liq. Harakatlar strategiyasida ilgari surilgan g‘oyalarni hayotga joriy etish, ushbu g‘oyalar asosida mamlakat iqtisodiyotini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish, tarmoqlar va sohalarni modernizatsiya qilish, tizimni texnik hamda texnologik yangilashga doir masalalarni ilgari surishda yangidan-yangi investitsiya oqimlarni jalb qilish dolzarb masalalardan biridir.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “... qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘shishiga erishgan bo‘ladi, shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyotning drayveri, - o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi [1].

«O‘zbekiston – 2030» strategiyasining 5 ta asosiy g‘oyasidan biri bo‘lgan ushbu maqsadga erishish bo‘yicha davlatimiz rahbari boshchiligida tizimli islohotlar olib borilmoqda.

Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Soha va tarmoqlarni transformatsiya qilish jarayonlari faol amalga oshirilmoqda. Hududlarning o‘ziga xos

xususiyatlari, ishga solinmagan imkoniyatlaridan kelib chiqib, katta-katta investitsiyalar jalb etilmoqda. Misol uchun, joriy yilda Toshkent viloyatida 5 milliard Namanganda 4 milliard, Qashqadaryoda 3,5 milliard, Andijonda 3 milliard dollardan ziyod investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha aniq rejalar belgilab olingan.

Ahamiyatli jihati shundaki, mazkur investitsiyalar daromadli ish o‘rinlari sifatida aholining turmush farovonligiga xizmat qiladi. Mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirish, ijtimoiy kafolatlarni ta‘minlashda investitsiyalarning ahamiyati juda katta. O‘tgan yilda xorijiy investitsiya 1,6 barobar o‘shib, qariyb 35 milliard dollarni tashkil qilgani aytiladi. Tog‘-kon, neft-gaz, kimyo, qishloq xo‘jaligi sohaslarida investitsiya 2 karra oshgan. 50 ta tumanga 100 million dollardan ko‘p sarmoya kirib kelgan [14].

Mamlakatimizda olib borilayotgan ochiqlik, kuchli investitsiya siyosati natijasida iqtisodiyot barqaror o‘shishni namoyon etmoqda. Xususan, 2024 yilda yalpi ichki mahsulot 6,5 foizga oshib, 115 milliard dollarga yetdi. Xorijiy investitsiya 1,6 barobar o‘shib, qariyb 35 milliard dollarlik 242 ta yirik va o‘rta loyihalar ishga tushdi. Eksport ilk bor 27 milliard dollarga yetdi.

Mamlakatimiz ijtimoiy – iqtisodiy salohiyatini oshirishda, mamlakat aholisini doimiy ish o‘rinlari bilan ta‘minlash, ular uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish dolzarb masalalardan biridir. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun mamlakat iqtisodiyotini doimiy modernizatsiya qilib borish kutilgan natijaga erishishga sabab bo‘ladi deb hisoblaymiz. Bugungi kunda globallashuv jarayonlarini jadallashib borayotganligi dunyo bozorida o‘z o‘rniga va mavqeyiga ega bo‘lish bilan birga, kuchli raqobat muhitiga bardosh bera oladigan mahsulotlarni ishlab chiqish bilan birgalikda ushbu xizmatlarni ko‘rsatishni innovatsiyalar asosida takomillashtirishni talab etsa, ushbu talablarni bajarilishi mablag‘ga borib taqaladi va bu o‘z-o‘zidan investitsiyaga muhtojlik darajasini qay pog‘onada ekanligini bildirib qo‘yadi.

E‘tiborli jihatlardan biri shundaki, bugungi kunda nafaqat mamlakatimiz balki, dunyo iqtisodiyotining taraqqiyoti mana shu investitsiya oqimlariga bog‘liqdir. O‘ylaymizki, mamlakatimiz iqtisodiyoti rivoji uchun xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirish, ularni jozibadorligini oshirish hamda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning ijrosini samarali va sifatli ta‘minlash muhim vazifalarimizdan biri ekanligini tushinib olish muammo emas. Mamlakatimiz moliyaviy iqtisodiyotini kutilgan natijalarga erishishi uchun investitsiya oqimlarini ko‘paytirish, investitsiyalarni jalb etish mumkin bo‘lgan sohalarda qulay shart-sharoitlarni yaratish, investorlarni huquqiy himoya qilishning amaliy mexanizmlarini joriy etish va investitsion muhitni yanada yaxshilash moliyaviy rivojlanishda eng muhim vazifalardan biridir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Investitsiya muhiti jozibadorligini ta‘minlashning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish masalalarida ko‘plab xorijiy olimlar ilmiy tadqiqotlarini olib borishmoqda va bu boradagi ilmiy qarashlarini bildirishmoqda.

A.P.Ivanovning ta‘kidlashicha, “... ustuvor investorlar bu ishlab chiqarish jarayonlarida yangi texnologiyalardan foydalanish hamda mahsulot qaytimi yuqori bo‘lgan jarayonlarni tashkil etish, milliy iqtisodiyotning sanoat tarmoqlaridagi korxonalarni yetakchi korxonalariga aylantirish imkonini beruvchi yirik trasmilliy korporatsiyalardir” [4].

Romash M.V., Shevchuk V.I. larning fikriga ko‘ra, “... investitsiyalar, iqtisodiy tushunchalarining turli talqinlari investitsiyalarning asosiy vazifalarini shakllantirish uchun asos bo‘ladi. [5]

Mamlakatimiz olimlarini ham bu boradagi ilmiy qarashlariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak. Ular investitsiyaga iqtisodiy kategoriya sifatida yondashib, turlicha ta‘riflar berishgan.

A.O‘lmasov., N.To‘xliyevlarning ta‘kidlashlaricha, «Investitsiya iqtisodiyotning barcha soha, bo‘g‘inlarida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash maqsadida moddiy va nomoddiy, inson kapitalini iqtisodiyotga kiritish yo‘li bilan amalga oshirilgan kapital jamg‘arish jarayonidir» [2].

D. G‘ozibekov investitsiyalar turli xil kutilmagan risklar va kutilayotgan daromadlar bilan bog‘liq ekanligini yodda tutish zarur degan fikrni olg‘a surgan. Olimning bayon etishiga ko‘ra, pulning daromad keltirish layoqati pul keladigan manbalarga va uning nima maqsadlarda

sarflanishiga, ya'ni pulning qayerdan kelishi va nima maqsadlarda sarflanishiga urg'u berilgan [1].

N.Haydarov investitsiyalarga o'zining munosabatlarini bildirib, “Investitsiyalar - bu mulk shaklidan qat'iy nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat yuritayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va intellektual boyliklarini qonun doirasida bo'lgan har qanday tadbirkorlik obyektiga sarflanishidir” [7] degan g'oyani ilgari surgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlari mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarni jalb etishning ilmiy-nazariy jihatlari yoritib berilgan bo'lsa-da, biroq mamlakatimiz iqtisodiyotining investitsiya muhitini jozibadorligini ta'minlashning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari chuqur o'rganilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqola Yangi O'zbekiston taraqqiyotida investitsion jozibadorlikni oshirishning mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sirini rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan. Ishda investitsion jozibadorlikni oshirishni rivojlantirishga oid jarayonlarni qiyosiy rivojlantirishga oid turli xil yondashuvlar umumlashtirilgan holda o'rganilgan, hamda xulosalash asosida amaliyotda yaxlit qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Tahlil va natijalar.** Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotida investitsion jozibadorlikka baho berishda investitsiyalarning nafaqat hajmi yoki miqdor ko'rsatkichlariga shu bilan birgalikda ularning sifat ko'rsatkichlariga ya'ni, shakli, turi, ijtimoiy-iqtisodiy samarasi hamda boshqa jihatlarga ham alohida e'tibor qaratiladi. Iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichlaridan mamlakatimizga jalb qilingan va o'zlashtirilgan investitsiyalarning aksariyati bevosita davlat ishtirokidagi investitsiyalarni tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda bilvosita, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning ulushi tobora ortib bormoqda. Tahlillar natijasida quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi, birgina 2020-yil yakunlari bo'yicha moliyaviy hisobning manfiy saldosi 4,0 mlrd. dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilga nisbatan pasayish 1,0 mlrd. dollarni tashkil etdi. Moliyaviy hisob defisitining saqlanib qolishiga asosiy sabab kreditlar va qarzlarni bo'yicha norezidentlar oldidagi majburiyatlarni 7,1 mlrd. dollarga (shundan 3,3 mlrd. dollar davlat sektoriga to'g'ri kelmoqda), to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning 1,7 mlrd. dollarga ortishi hamda davlat va bank sektorlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar evaziga portfel investitsiyalarning 1,4 mlrd. dollarga o'sishiga sabab bo'ldi.


To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning 22,1 foizi tabiiy gaz ishlab chiqarish sohasidagi loyihalarni amalga oshirishga, 22,5 foizi boshqa metall bo'lmagan mineral mahsulotlarni ishlab chiqarish, 9,3 foizi qurilish ishlariga yo'naltirilgan<sup>1</sup>. Bugungi kunda investitsiya muhitini yaxshilash sohasidagi eng asosiy qadamlardan biri xususiy va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha shart-sharoitlarni yaratishdir. Bu borada prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev, -“Investitsiyalarni himoya qilishning qo'shimcha kafolatlari va choralari O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan kafolatlar berishni, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga ko'maklashishni, maxsus soliq va to'lov rejimini yaratishni, investitsiya loyihalarini amalga oshirilishi yuzasidan davlat monitoringi o'tkazilishini hamda O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan tuzilgan investitsiya shartnomalariga asosan boshqa choralarni o'z ichiga olishi mumkinligini”, - Investitsiyalar va investitsiya to'g'risidagi Qonun bilan himoyalab kuyganligi fikrimizning aniq isbotidir.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning yanvar-sentyabr oylarida O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 190,0 trln. so'mni tashkil etgan. Shundan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar 72,0 trln. co'm miqdorida qayd etildi. O'zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida eng yuqori ulushga ega bo'lgan investor davlatlar:

2022-yilning yanvar-sentyabr oylarida O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar holati quyidagicha:

<sup>1</sup> <https://www.gazeta.uz/uz/2021/02/26/investments/>

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan jami investitsiyalar – 190,0 trln. so‘mni tashkil etadi va bu o‘z navbatida ikki qismga ajratiladi. Bular:



1 – rasm. O‘zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida eng yuqori ulushga ega bo‘lgan investor davlatlar, % hisobida

- Markazlashgan investitsiyalar – 26,1 trln. so‘m
- Markazlashmagan investitsiyalar – 163,9 trln. so‘m

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar – 72,0 trln. so‘m

O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – 8,3 trln. so‘m

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar – 63,7 trln. so‘m, 2022 yilning yanvar-iyun oylarida O‘zbekistonda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 121,8 trln. so‘mni tashkil etgan.

2024-yil yakunlarida xalqaro zaxira aktivlari operatsiyalari bo‘yicha nomonetar oltin sotilishi hisobiga valyuta komponentida 1,8 mlrd. dollar miqdoridagi sezilarli darajadagi o‘shish kuzatildi. Bunday iqtisodiy o‘shishning omillari sifatida mamlakatda yaratilgan investitsiya muhitining o‘ziga xos tavsiflarini misol tariqasida keltirib o‘tish mumkin. Ularga huquqiy ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy omillardan iborat bo‘lgan kompleks tavsiflari kiradi. Xususan huquqiy tavsiflardagi omilga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak birgina o‘tgan davr mobaynida ushbu yo‘nalishdagi sa‘y-harakatlar yana ikkita muhim hujjat bilan takomillashtirildi.

Ushbu hujjatlar mamlakatimizda “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta‘minlashga, xususan mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi hamda “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari qabul qilindi.

Ushbu qonun va qarorlar shubhasiz investitsiya muhitini yanada qulay va jozibador bo‘lishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Mana shunday huquqiy ijtimoiy-iqtisodiy tavsufdagi qonun va qarorlarni tuman, shahar va viloyatlar kesimida yanada rivojlantirish va takomillashtirish imkoniyatlari ham juda keng. Ular o‘z mazmun mohiyati jihatidan klaster xususiyatiga ega bo‘lgan tasnif va tavsiflarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tavsif va tasniflar, o‘z navbatida, moliyaviy - iqtisodiy faoliyatning yakuniy natijalariga, ya‘ni tadbirkorlik subyektlari faoliyatida erishilayotgan va kutilayotgan natijalar samaradorligiga bevosita bog‘liq.

Mana shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, amalga oshirilayotgan chora tadbirlar va erishilayotgan natijalar “Maqbul investitsiya muhiti”ning mezonlariga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatmayapti, bu esa, ularni yanada faollashtirish salohiyati hamda imkoniyatlari hali mavjud ekanligidan darak beradi. Mamlakat investitsion jozibadorligini ta‘minlovchi mezonlarga tuman, shahar va viloyatlar kesimida yanada aniqlik kiritish xamda ular asosda “Maqbul investitsiya muhiti”ni shakllantirishning konseptual asoslarini yaratish masalasini ko‘rib chiqish lozim. Maqbul investitsiya muhitini shakllantirish davlat siyosatining muhim, shartlaridan biri hisoblanib, respublikadagi tuman, shahar va viloyatlarning har birini o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta ta‘minlash, ular o‘rtasida raqobat muhitini faollashtirish bozor infratuzilmasini takomillashtirish kabi ustuvor masalalarni hal etishga qaratilgandir.

Investitsion jozibadorlikni ta'minlash masalalarini kombinatsion yechimi va ularning samarasi yuqorida qayd qilingan moliyaviy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy omillar tasnifi va tavsifining hududlar bo'yicha tabaqalashtirilgan holda qabul qilinadigan chora-tadbirlar rejasiga chambarchas bog'liq. Maqbul investitsiya muhitining o'ziga xos jozibasi va hayotiyligi yuqorida qayd etilgan omillar ta'sirida shakllanib rivojlanar ekan, uni ilmiy-amaliy nuqtayi nazardan o'rganish, tadqiq etish hamda mazmun mohiyatini ochib berish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Investitsion jarayonlarni tahlil qilish natijalari hamda bir qator xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlar va mutaxassislarning xulosalarida muayyan davlatda yaratilgan investitsiya muhiti investorlar uchun faqat “foйда” keltirishi lozimligi ta'kidlanadi. Buning natijasida bir tarafdin, ushbu mantiq investitsiya muhiti uchun to'g'ri bo'lsa, ikkinchi tarafdin, ya'ni, investor faoliyati nuqtayi nazaridan ushbu xulosa bilan murosa qilish qiyin. Maqbul investitsiya muhitini yaratib berish bilan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Agar investor o'z ishini professional darajada yaxshi tashkil etmasa, u xalqaro bozorda o'z raqobatchilari orasida sodir bo'ladigan raqobat jarayonlariga bardosh bera olmaydi. Maqbul investitsiya muhiti sharoitida o'z faoliyatini barqaror darajada ta'minlay olmagan har qanday investorni bunday muhitga qayta qo'shilishi (a'zosi bo'lishi)ni cheklovchi “Ishonchsiz investor” axborot bazasini tashkil etish kutilgan maqsadga erishish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Investitsion muhit tushunchasi o'z murakkabligi va mukammalligi jihatidan moliyaviy natijalar asosida makro va mikro darajada ko'rib chiqiladi. Makro daraja - kapitalni qabul qiluvchi mamlakatdagi mavjud siyosiy iqtisodiy va ijtimoiy holatlarni o'z ichiga oladi. Mikro daraja-xorijiy investitsiyalarga nisbatan davlat siyosati, xalqaro shartnomalar shartlarini bajarilishi, xorijiy mulkni milliyalashtirish, turli masalalar bo'yicha xalqaro shartnomalar tizimida ishtirok etish davlat boshqaruv tizimlarining mustahkamligi, siyosiy holatning barqarorligi davlatning investitsion jarayonlarga aralashish darajasi iqtisodiy siyosatning mukammalligi davlat apparatining ish samaradorligi banklar tizimining takomillashuv darajasi pul muomalasi kabi davlat byudjetining barqarorligi davlatning ichki, tashqi qarzlari miqdori hamda ularga salbiy va ijobiy ta'sir o'tkazuvchi omillar hisobga olinadi. Shuni unutmaslik lozimki, kapitalni qabul qiluvchi mamlakatning qonunlarida aks ettirilgan to'g'ridan - to'g'ri xarajatlar va xorijiy firmalarning faoliyatini chegaralovchi yoki taqiqlovchi omillardan tashqari to'liq aniqlanmagan ba'zi qoidalar va muvofiqlashtirilmagan jarayonlarning mavjudligi investitsion muhitga salbiy ta'sir etadi.

Investitsiyalarni mamlakatga jalb qilishda investitsion muhitning, mamlakat tizimidagi investitsion jozibadorlikning ta'siri katta. Chunki investorlar uchun yaratilgan qulay shart - sharoitlar imtiyozlar va preferensiyalar ularning investitsion qarorlar qabul qilishlarida, ya'ni mablag'larini yo'naltirishlarida katta ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investor uchun investitsion qaror qabul qilish eng mukammal va mas'uliyatli tadbirlardan biri hisoblanadi. Bunday deyishga asos investor bir vaqtning o'zida bir qator ko'p mezonli va ko'p yo'nalishli omillarni baholashi zarur bo'ladi. Shuning uchun ham investorning har qanday investitsion qaror qabul qilishida mamlakat hudud yoki tarmoqning investitsion muhitini o'rganish eng muhim masala hisoblanadi. Investitsiya yo'naltirishi kerak bo'lgan mintaqa yoki davlatdagi vaziyat qanchalik noqulay yoki u yerda noaniqliklar bo'lsa, investorning e'tibori o'sha yerdagi investitsion muhitni baholab beruvchi ekspertlar xulosasiga shunchalik jiddiy qaratilgan bo'ladi. Shunday ekan, investitsion muhitning qulayligi bevosita va bilvosita investitsion muhitga ta'sir etuvchi omillarga bog'liq bo'ladi.

Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda investitsion muhitni yanada tubdan yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning jahon amaliyotidan foydalanish va shu asosda mamlakatning xalqaro reytingini yanada ko'tarish borasida izchil kompleks chora - tadbirlar ko'rilmogda.

Mamlakatimiz moliyaviy iqtisodiyotining barcha soha va tarmoqlarida o'zgarishlar tarkibiy islohotlarni o'zida aks ettirishi bilan ahamiyatga molik bo'lmoqda. Bunday islohotlarning olib borilishi bevosita mamlakatdagi investitsion jarayonlarni jadal rivojlanishiga bog'liq. So'nggi

yillarda mamlakatimizda investitsion faoliyatni tartibga solish, investitsiyaga doir bir qancha chora-tadbirlar rejalarini amalga oshirish, investitsion faoliyatni tartibga solib turuvchi qator qonun, qonun osti hujjatlari hamda qarorlarning qabul qilinganligi ushbu faoliyatga berilayotgan alohida e'tibordan darak beradi.

Investorlar iqtisodiy samara olish maqsadida amalga oshirmoqchi bo'lgan investitsion faoliyat bir nechta investitsion elementlardan tashkil topadi. Investor o'z ixtiyoridagi investitsion resurslarini tadbirkorlik loyihasiga sarflashdan oldin asosiy diqqat - e'tiborini ikkita investitsion elementga qaratishi lozim. Bular investitsiya muhiti va investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillardir.

Investitsiya muhiti - ma'lum bir hududga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligini oshirish uchun amalga oshirilgan chora -tadbirlar natijasida yaratilgan shart - sharoitlar yig'indisi hisoblanadi.

Qulay investitsiya muhitini shakllantirish asosiy iqtisodiy omillardan bo'lib, iqtisodiy rivojlanishning barqaror sur'atlari va bozor institutlarining eng avvalo mustahkam xo'jalik qonunchiligi rivojlangan moliya tizimi mavjudligi hisoblanadi.

Investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish, investitsion jozibadorlikni oshirish, mamlakatga investorlarni yanada kengroq miqyosda jalb qilish, investorlarning o'z mablag'larini mamlakat moliyaviy iqtisodiyoti uchun sarflashga qiziqtirish maqsadida bugungi kunda qonunchiligimiz asosida bir qator imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilmoqda. Bularga:

- birinchidan, xorijiy investorlar kapitalini saqlanishi uchun mavjud kafolatlar;
- ikkinchidan, investor tomonidan ko'rilgan zararlari qoplanishi uchun kafolatlar;
- uchinchidan, soliq va soliqqa tortish tizimida ularga oid belgilangan imtiyozlarning mavjudligi;
- to'rtinchidan, investitsiya natijalarida olingan foyda va daromadlarni xorijga olib chiqib ketishning erkinligi;
- beshinchidan, milliy so'mda va chet el valyutasida olingan foydalarni o'tkazish va olib chiqib ketish faoliyati;
- oltinchidan, bojxona imtiyozlarining mavjudligi;
- yettinchidan, xorijiy investorlarning mulklari va ularning o'zlarini xavf-xatarlardan sug'urtaviy muhofaza qilish tizimini yaratilganligi va boshqalar.

Natijada mamlakatimizning investitsion jozibadorligi oshib bormoqda. Uni yanada oshirish borasida turli amaliy ishlar qilinmoqdaki, bu yaqin yillar ichida o'z samarasini beradi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning xorijlik sheriklar bilan o'zaro manfaatli hamkorligi mamlakatda chet ellik sarmoyadorlarning muvaffaqiyatli ishlashi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilganidan yorqin dalolat beradi. Xorijiy investorlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik yaxshi samaralar berishi o'z isbotini topmoqda. Mamlakatimizda xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlash maqsadida barcha shart-sharoitlar mavjud.

Mamlakatimizning barcha hududlarida investitsiyalarning moliyalashtirilish manbalarini kengaytirish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Shunday ekan, hududlarning sohaga doir ustunliklarini va imkoniyatlarini inobatga olish alohida muhim vazifa sifatida namoyon bo'ladi. Buning uchun hududlar kesimidagi chora-tadbirlar rejasini yoki yo'l xaritalarini tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi. Aholining kambag'al qatlamini ish bilan ta'minlash, yashash sharoitlarini yaxshilash, kerak bo'lsa raqobatbardosh kadrlarni kasb-hunarga o'qitish orqali samarali mehnat qila oladigan ish kuchini shakllantirish zarur. Buning natijasida halol raqobat va samarali mehnat tizimi yo'lga qo'yiladi. Bu o'z-o'zidan Yangi O'zbekistonni yangi marralar sari olg'a intilishiga va uning poydevorini mustahkam qilib quyilishiga asos bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mamlakatimizning davlat investitsiya siyosati uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan bo'lib, investorlarning samarali faoliyat olib borishlari uchun barcha shart-sharoitlari yaratib berilgan. Mamlakatimizning demografik jihatdan qulay joyda joylashganligi, transport infratuzilmasining rivojlanganligi, tabiiy resurslarning ko'pligi, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilmaning yuqori darajada taraqqiy etganligi, malakali

kadrlarning mavjudligi va boshqa bir nechta omillar investorlarga mamlakatimiz kelajagiga ishonch bilan qarash imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Ғозибеков Д.Ғ., Қоралиев Т.М. Инвестиция фаолиятини ташкил этиш ва давлат томонидан тартибга солиш. – Т.: ТМИ., 1997-72 б.
2. Ўлмасов А., Тўхлиев Н. Бозор иқтисодиёти: қисқа луғат-маълумотнома.-Т.: Комуслар бош таҳририяти. 1991.-41 б.
3. Байхонов Б.Т. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг тармоқлараро тақсимланишини эконометрик моделлаштириш услубиётини такомиллаштириш. Монография. -Т.: IQTISODIYOT, 2017 й.–207 б.
4. Иванов, А.П. Финансовые методы управления инвестиционной привлекательностью компании / Иванов А.П., Сахаров И.В, Хрусталеv.Э.Ю. // Аудит и финансовый анализ. - 2006. - № 1. - С. 126.
5. Ромаш М. В., Шевчук В. И. Финансирование и кредитование инвестиций. - Минск: «Книжный дом», «Мисанта», 2004. -157 с.
6. Ғозибеков Д.Ғ. «Инвестицияларни молиялаштириш муаммолари» мавзусидаги и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. -Т.: 2002. -11-14 б.
7. Хайдаров Н.Х. “Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида корхоналар инвестицион фаолиятидаги молия-солиқ муносабатларини такомиллаштириш масалалари” мавзусидаги и.ф.д.илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. — Т.: Академ-Хизмат. 2003. – 14-15-б.
8. Ж.Р.Зайналов, С.С.Алиева ва бошқалар: Инвестиция. Дарслик.-Т.:”Иқтисод-молия”, 2020.-480 б.
9. Мустафакулов Ш.И. Ўзбекистонда инвестицион муҳит жозибадорлигини оширишнинг илмий услубий асосларини такомиллаштириш. Автореферат, Т: 2017, 68 б.
10. Шарифходжаев М. Государства на новом этапе инвестиционной деятельности. // Экономика и статистика. – 1998. - №8. – с. 22
11. Имомов Х.Х. Инвестицион муҳитни яхшилаш ва уни жозибадорлигини оширишни молиявий асослари. и.ф.н. илм. дара. олиш учун ёзилган диссер. автореферати. –Тошкент, БМА. 2011. – 22 б.

<p><b>О.Жумакулов</b></p> <p><b>Влияние повышения инвестиционной привлекательности на экономическое развитие</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В данной статье особое внимание уделено особенностям инвестиционного климата, создаваемого в республике, наряду с положительным влиянием повышения инвестиционной привлекательности в развитии Нового Узбекистана на экономику страны. Не секрет, что сегодня, когда процессы глобализации ускоряются, приобретение своего места на мировом рынке и создание новых видов продукции и услуг, выдерживающих сильную конкуренцию, а также совершенствование существующих производств и услуг на основе инноваций требуют. В данной статье изучены роль и особенности инвестиций в нашей экономике, даны соответствующие предложения и выводы.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> инвестиция, экономика, экономические реформы, инвестиционный климат, цена, объем, количественные показатели, качественные показатели, «Благоприятный инвестиционный климат», инвестиционная политика.</p>	<p><b>О.Jumakulov</b></p> <p><b>The impact of increasing investment attractiveness on economic development</b></p> <p><b>Abstract:</b> This article focuses on the features of the investment climate created in the republic, as well as the positive impact of increasing investment attractiveness in the development of New Uzbekistan on the country's economy. It is no secret that today, when globalization processes are accelerating, gaining a place in the world market and creating new types of products and services that are able to withstand strong competition, as well as improving existing production and services based on innovations, is required. This article examines the role and characteristics of investments in our economy, and makes relevant proposals and conclusions.</p> <p><b>Keywords:</b> investment, economy, economic reforms, investment climate, price, volume, quantitative indicators, quality indicators, “optimal investment environment”, investment policy.</p>
--	---

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

19.05.2025 йилда теришга берилди. 06.06.2025 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табағи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0036А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.